

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**ISMATOV DAVLAT MUXIDDIN UG'LI**

**BA'ZI d-ELEMENTLAR IONLARI BILAN FLAVONOIDLARDAN  
SUPRAMOLEKULAR SISTEMALAR OLIH VA ULARNING TADQIQI**

**02.00.04 – Fizik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Ismatov Davlat Muxiddin ug‘li**

Ba‘zi d-elementlar ionlari bilan flavonoidlardan supramolekular sistemalar olish va ularning tadqiqi ..... 3

**Исмагов Давлат Мухиддин угли**

Синтез и исследовании супрамолекулярных систем ионов некоторых d-элементов с флавоноидами ..... 21

**Ismatov Davlat Mukhiddin ugli**

Synthesis and study of supramolecular systems of ions of some d-elements with flavonoids ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 42

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**ISMATOV DAVLAT MUXIDDIN UG'LI**

**BA'ZI d-ELEMENTLAR IONLARI BILAN FLAVONOIDLARDAN  
SUPRAMOLEKULAR SISTEMALAR OLIH VA ULARNING TADQIQI**

**02.00.04 – Fizik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/K559 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muxamadiyev Nurali Qurbonaliyevich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Ilmiy maslahatchi:**

**Suyariyon Kurbon Jura**  
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Eshmamatova Nodira Baxramovna**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Muradova Dilafuz Kadirovna**  
PhD, dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «6» mart soat 13<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri., Universitet xiyoboni, 15-uy, Biokimyo instituti, Kimyo binosi 2-qavat, 220- xona. Tel.: (+99866) 239-11-40; faks: (+99866) 239-11-51; E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (11 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Axborot-resurs markazi. Tel.: (+99866) 239-11-51), E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «21» fevral kuni tarqatildi.  
(2024-yil «21» fevral dagi 4 - raqamli reyestr bayonnomasi)



**A.M. Nasimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, U.F.d., professor

**J.R. Uzokov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, PhD

**O.N. Ro'zimuradov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda o‘tish metallari va organik ligandlar asosida supramolekulyar komplekslar olish va xossalarini o‘rganish yildan-yilga ortib bormoqda. Chunki, metallarning organik ligandlar bilan hosil qilgan ko‘plab komplekslari turli reaksiyalar uchun samarali katalizator, tibbiyotda dori vositalarini manzilli yetkazib berivchi vosita, noyob magnit material, optik hamda yarim o‘tkazgich sifatida, nanomateriallar olishda, hamda ekologik muammolarni yechishda samarali qo‘llanilmoqda. Shuning uchun ham organik ligandli metall komplekslari sintezining yangi usullarini yaratish, ularning xossalarini o‘rganish hamda qo‘llanilish doirasini kengaytirishga doir tadqiqotlar diqqatga sazovordir. Shu bilan bir qatorda organo-noorganik gibril komplekslar optik va dielektrik, yuqori adsorbsion sig‘imli nanog‘ovak materiallar, fotokatalitik reaksiyalar uchun selektiv katalizatorlar, lyumisint, ferroelektrik va ferromagnit materiallar olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda metallarning organik ligandlar bilan komplekslarini sintezi va xossalarini aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu boradi, metallarning organik ligandlar bilan sintez usullari ishlab chiqilgan va ularning sharoitlari maqbullashtirish, olingan kompleks birikmalarning yuqori seliktev katalizatorlar yaratish, muqobil energiya ishlab chiqarishda, issiqlikdan himoyalovchi qoplamalar yaratish, dori vositalarini manzilli yetkazib berishda, noyob magnit, optik hamda yarim o‘tkazuvchi xossalarni namoyon qiluvchi nanomateriallar olish, gen injeneriyasida ahamiyatli genlarni ajratish, hamda ba‘zi veruslarni immobilizatsiyasida qo‘llanilishiga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda ham o‘tish metallar va organik ligandlar asosida komplekslar sintezi va ularni amaliyotda qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ularning tuzilishi va xossalari bo‘yicha muhim natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «maxalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta‘minlash» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, muayyan xossalarga ega komplekslar sintezi uchun ligandlar sifatida tabiiy holdagi o‘simliklar tanasidan ajratib olingan ba‘zi organik moddalardan foydalanish hamda turli xossalari komplekslar sintezida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni<sup>1</sup>, 2017-yil 23-avgustdagi PQ-3236-son “2017-2021-yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” gi qarori, 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-son “Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xom-ashyo turlari bilan barqaror ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori hamda mazkur faoliyatga

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyo, kimyoviy texnologiyalar, nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Adabiyotlar tahlilidan ma'lumki, o'simliklar tarkibidan flavonoidlarni ajratish, ularni xossalarini va ba'zi elementlar ionlari bilan komplekslar hosil qilish bo'yicha tadqiqotlar dunyoning qator davlatlarida, jumladan AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston davlatlarida flavonoidlarni xromatografiya usullarida ajratish, ularning sifat va miqdoriy tarkibini o'rganish va ularning ba'zi metallar ionlari bilan komplekslarini sintezi, ularning fizik-kimyoviy xarakteristikalarini o'rganish va komplekslarning barqarorligini baholash bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Shu bilan bir qatorda flavonoidlardan qaytaruvchi sifatida foydalanilib, o'simliklar hujayrasida "yashil" nanomateriallar olish bo'yicha qator ishlar ham bajarilgan. Ushbu ishlarni amalga oshirishda Lobanova I.Yu., Turetskova V. F., Myagchilov A. V., Trofimova N. N., Babkin V. A., Vakulskaya T., Chuparina, Ye. V., Shatoxina N. S., Vilms A. I. (Rossiya), Ikrami M. B., Turayeva G. N. (Tojikiston), Nazarova V. D., Salikova N. S., Bektemisova A. U. (Qozog'iston) va boshqalarning ishlari diqqatga sazovor. "Yashil" nanomateriallar sitezini amalga oshirish, uning maqbul sharoitlarini tanlash, xossa-o'lcham o'zaro bog'liqligini tekshirish bo'yicha tadqiqotlarda Moskva davlat universitetida V.V.Makarov rahbarligida olib borilgan ishlar diqqatga sazovordir.

O'zbekistonda mazkur yo'nalish rivojiga hissa qo'shagan olimlardan akademiklar S.Yu.Yunusov, O.S.Sodiqov, N.A.Parpiyev, B.Ibragimov, A.Turayev, professorlar X.T.Sharipov, B.U.Umarov, Sh.Qodirova, E.X.Botirov, Sh.V.Abdullayev, A.M.Karimov va boshqalarni ta'kidlash mumkin. Ular o'simliklar tarkibidan flavonoidlarni ajratib olish, tuzilishi va xossalarini o'rnatish, kompleks birikmalarining olinishi va ularning tuzilishi, xossalarini o'rganish bo'yicha ishlarni amalga oshirib, o'zlarining hissalarini qo'shgan.

Yuqorida qayd etilgan natijalarga qaramasdan flavonoidlarning ba'zi d-elementlar ionlari bilan komplekslarini sintez qilish, ularning fizik-kimyoviy xossalarini tekshirish va barqarorligini baholash hamda qo'llanilish imkoniyatlarini, jumladan, dori vositalarini maqsadli yetkazib berishda qo'llashni tadqiq etish dolzarb muammolardan biridir.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasining "Tabiiy va sintetik materiallarni sintez qilish, tekshirish va qayta ishlashning yangi usullari" bandi va OT-F7-83-raqamli davlat (2017-2020) granti doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** flavonoidlarning ba'zi d-elementlar ionlari bilan supramolekulyar sistemalar hosil bo'lish mexanizmlari va ularning komplekslarini barqarorligini aniqlashdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

kversetin va rutin bilan ba'zi d-elementlar ionlarining komplekslarini kvant-kimyoviy jihatdan baholash;

kversetin va rutin bilan ba'zi d-elementlar ionlarining komplekslarini sintez qilish va ularning tuzilishini o'rnatish;

sintez qilingan komplekslarning barqarorlik konstantalarini izomolyar seriya usulida aniqlash va ularning barqarorligiga pH ning ta'sirini baholash;

kversetin va rutin bilan ba'zi d-elementlar ionlari komplekslarining termik parchalanishi mahsulotlarini o'rganish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida kversetin va rutin flavonoidlari, ba'zi d-elementlarning tuzlari va ularning kompleks birikmalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** kversetin va rutin flavonoidlarining ba'zi d-elementlar ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining fizik-kimyoviy xossalari va ularning barqarorligi baholash tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda IQ-spektrometriya, UB- va ko'rinish sohasi spektroskopiyasi, xromatografiya, rentgen difraktometriya, skanirlovchi elektron mikroskopiya, statistik usullar hamda GAUSSIAN-09 dasturi kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

$Fe^{2+}$  va  $Co^{2+}$  ionlarining kversetin hamda rutinli komplekslarining tuzilishi va energetik, elektron xossalari hamda reaksiya qobiliyatlari kvant-kimyoviy usulda aniqlangan;

$Fe^{2+}$  va  $Co^{2+}$  ionlarining kversetin va rutinli supramolekulyar komplekslari sintez qilingan hamda ularning tuzilishlari UB-, IQ-spektroskopiya usullarda aniqlangan hamda komplekslarning kovalentmas bog'lar hisobiga hosil bo'lishi isbotlangan;

pH ning turli qiymatlarida  $Fe^{2+}$  va  $Co^{2+}$  ionlarini kversetin hamda rutin bilan komplekslarning barqarorliklari izomolyar seriya usulida baholangan hamda birikmalarning barqarorligiga muhitning ta'siri sezilarli emasligi aniqlangan;

$Fe^{2+}$  va  $Co^{2+}$  ionlari bilan kversetin hamda rutinli komplekslarning termik parchalanish mahsulotlari mikrorentgen usulida aniqlangan va asosiy mahsulot sifatida metall oksidlari hosil bo'lganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ba'zi flavonoidlarning d-elementlar ionlari bilan kompleks xosil qilish imkoniyatlarini kvant-kimyoviy jihatdan hisoblashning metodikasi ishlab chiqilgan;

kversetin va rutin bilan ba'zi d-elementlar ionlarining komplekslarini sintez qilish sharoitlari maqbullashtirilgan;

komplekslarning barqarorlik konstantalari izomolyar seriya usulida baholash algoritmi ishlab chiqilgan;

kversetinining temir va kobaltli komplekslaridan dori vositalarini manzilli yetkazishdagi samarasini baholash metodikasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan ilmiy natijalar va xulosalar zamonaviy IQ-spektrometriya, UB- va ko'rinish sohasi spektroskopiyasi, Rentgen difraktometriya, Skanirlovchi elektron mikroskopiya, Xromatografiya, GAUSSIAN-09 dasturi, Statistik usullar va kvant-kimyoviy kabi tekshirish va

hisoblash usullari bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati flavonoidlarning d-elementlar ionlari bilan hosil qilgan kompleks brikmalarining sintezi, ularning tuzilishi, yarim emperik va ab initio kvant-kimyoviy usullar yordamida asoslanishi, fizik-kimyoviy xossalarning aniqlanishi, hamda barqarorligi bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratishda kompleks brikmalar fizik-kimyosini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati d-elementlar ionlari bilan flavonoidlardan komplekslar sintezi va barqarorlik konstantasini hisoblash usulini amalga oshirilganligi, sintez uchun maqbul sharoitning tanlanganligi hamda  $Fe^{2+}$  ionlari hosil qilgan komplekslarning barqarorligini o'rganish bo'yicha metodikasi ishlab chiqilganligi va komplekslarning fizik-kimyoviy xossalarni o'rganilganligi yangi supramolekulyar komplekslarni har tomonlama tahlil qilishda foydalanishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi** flavonoidlarning va d-metallar ionlari bilan olingan kompleks brikmalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kversetin bilan  $Fe^{2+}$  ionlarining hosil qilgan kompleks brikmasi barqarorligini aniqlash metodikasi "Samarkand England Eco-Medical" qo'shma korxonasida amaliyotga joriy etilgan ("Samarkand England Eco-Medical" korxonasining 2023 yil 24 maydagi 01/1-249-sonli ma'lumotnomasi). Natijada,  $Fe^{2+}$  ionlarini ularning kversetin bilan komplekslari holida inson organizimiga manzilli yetkazish imkonini bergan;

kversetin bilan  $Co^{2+}$  ionlarining hosil qilgan kompleks brikmasi barqarorligini aniqlash metodikasi "Samarkand England Eco-Medical" qo'shma korxonasida amaliyotga joriy etilgan ("Samarkand England Eco-Medical" korxonasining 2023 yil 24 maydagi 01/1-250-sonli ma'lumotnomasi). Natijada,  $Co^{2+}$  ionlarini ularning kversetin bilan komplekslari holida inson organizimiga manzilli yetkazish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan 5 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 103 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor

yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “**Flavonoidlarning metall ionlari bilan komplekslari va ularning xossalari**” deb nomlangan adabiyotlar sharhi (I bob) flavonoidlarning tuzilishi, ulardagi aromatik halqada mavjud bo‘lgan gidroksil va karbonil guruhlarining reaksiyon qobiliyati hamda ularning metallar ionlari bilan komplekslar hosil qilish imkoniyatlarida strukturaviy xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Kompleks hosil bo‘lishiga ta‘sir qiluvchi omillar atroflicha ko‘rib chiqilgan va flavonoidlarning tuzilishini barqarorlashtirishda turli metal ionlarining roli haqidagi ma‘lumotlar umumlashtirilgan. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan.

Dissertatsiyaning II bobi tadqiqot ob‘ektlari, usullariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda foydalanilgan reaktivlar haqida ma‘lumotlar berilgan, komplekslarni sintez qilish metodikalari va ularni tahlil etish usullari keltirilgan.

Komplekslarni tadqiq etish usullari sifatida IQ-spektrometriya, UB va ko‘rinish sohasi spektroskopiyasi, Xromatografiya, Rentgen difraktometriya, Skanirlovchi elektron mikroskopiya, GAUSSIAN-09 dasturi va statistik usullar qo‘llanilgan bo‘lib, ular haqidagi ma‘lumotlar o‘rin olgan.

Dissertatsiyaning III bobi “**Ba‘zi flavonoidlarning Fe(II) va Co(II) ionlari bilan komplekslar hosil qilishini kvant kimyoviy tahlili**”ga bag‘ishlangan.

Kversetin flavonoidining Fe(II) ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmasini kvant kimyoviy baholash. Flavonoidlar tarkibidagi karbonil va gidroksil guruhlari hisobiga metall ionlari bilan nanokompozitlarni hosil qilish imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham flavonoidlarning va ba‘zi d-metallar ionlari bilan xelatlar hosil qilish mexanizmlarini kvant-kimyoviy usullarda o‘rganish, ulardagi reaksiyon markazlarni aniqlash hamda miqdor jihatdan baholash orqali “struktura-xossa” o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish imkoniyatini beradi. Shu maqsadda flavonoid kversetin va Fe(II) ionlaridan xelat kompleksning xosil bo‘lish mexanizmi, barqarorlik konstantasi, molekulada zaryad zichligining taqsimoti, faollanish energiyasi kabi parametrlar yarim emperik (PM3), Ab initio va DFT usullarda o‘rganildi.



**1-rasm. Kversetin molekulasini va kversetin-Fe (II) bilan hosil qilgan kompleksning AM1 da optimallashtirilgan strukturasi**

Flavonoidlar molekulasida tarkibidagi 3-OH guruhining glikozidlanishi (kversetindan rutingacha) hisobiga kon'yugatsiyani qisman yo'qolishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida molekulada induksion effektini o'zgartiradi. Buni HOMO-LUMO bog'lanishlar energiyalarining kamayishi bilan tushuntirish mumkin (1-rasm).

Fe(II) kationi va kversetin o'rtasida kompleks hosil bo'lishida flavonoidning aromatik (A va C) hamda kislorodli giterotsiklik halqadagi (C) 3,5,7,3',4' pentagidroksillar ishtirok etadi. DFT usulida Fe(II) ionining kversetindagi 3'-OH, 4'-OH, 3-OH va 5-OH bilan hosil qilgan bog'larining uzunligi mos ravishda 1,279 Å, 1,419 Å, 1,456 Å va 1,318 Å tengligi aniqlandi. Shuningdek, Fe(II) kationi va kversetinning turli gidroksil va karbonil guruhlari hisobiga hosil bo'lgan kompleksning bog' energiyalari Ab initio usulida hisoblandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval

#### Kversetinning Fe(II) kationi bilan hosil qilgan kompleksining Ab initio usulida hisoblangan, bog'lar energiyalarining qiymatlari

Kompleks	4C=O va 3-OH kj/mol	3'-OH va 4'-OH kj/mol	3C=O va 5-OH kj/mol
Kversetin-Fe(II)	28,912	76,361	24,365

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan, funksional guruhlarning bog' hosil qilish energiyasi 3C=O va 5-OH bog'larida eng kam ekanligini ko'rish mumkin.

Fe(II) kationing kversetin bilan hosil qilgan kompleksining barqarorlik konstantalari Mulliken usulida hisoblandi va bog' uzunligining kamayishi bilan kompleksning barqarorlik konstantasining ortib borishi aniqlandi.

Shuningdek, kversetin molekulasining fenol halqasidagi O-H bog'ining dissotsiyalanish energiyasi ham hisoblandi, olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

### 2-jadval


#### Kversetin molekulasining fenol halqasidagi O-H guruhlarning dissotsiyalanish energiyasi

Kompleks	7-OH	5-OH	3-OH	3'-OH	4'-OH
Kversetin-Fe(II)	14,17	26,08	17,40	16,28	14,36

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, fenol halqasining 7, 4', 3', 3 va 5 holatlaridagi O-H bog'larining dissotsiyalanish energiyalari orib boradi. Bundan, 7, 4', 3', 3 holatlardagi OH larning vodorodlari Fe<sup>2+</sup> ionlariga oson almashinadi.

Shu bilan bir qatorda Fe(II) bilan kversetin hosil qilgan kompleksning IQ-spektrlari Gaussian 09 dasturi yordamida hisoblandi hamda tajriba natijalari bilan taqqoslandi (2-rasm).

2-rasmdan komplekning IQ spektrlarida 1600-100 cm<sup>-1</sup> sohalarida hosil bo'lgan yuqori intensivli chuqqilar aromatik halqalar tarkibidagi C-H bog'larining valent tebranishi hisobiga, 3500-300 sm<sup>-1</sup> sohalaridagi chuqqilar esa OH guruhlarning difarmatsion tebranishlari hisobiga hosil bo'lganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, spektrning 627 sm<sup>-1</sup> chuqqisi Fe-O bog'ining difarmatsion tebranishlari hisobiga hosil bo'lganligini qayd etish mumkin.



**2-rasm. Kversetin va uning Fe(II) ionlari bilan hosil qilgan kompleksning Gaussian 09 dasturida hisoblangan va tajribada olingan IQ-spektrlari**

**Co(II) ionlarining kversetin bilan kompleks hosil qilishini kvant-kimyoviy baholash.** Kversetin molekulasida fenol -OH ning hosil qilgan bog‘lari energiyasi va ularda elektron zichlik taqsimoti metall komplekslar hosil bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun kversetinining Co(II) kationlari bilan hosil qilgan kompleksining Ab initio usulida bog‘ energiyalari qiymatlari hisoblandi. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

**3-jadval**

**Kversetin va Co(II) kationi kompleksining Ab initio usulida hisoblangan bog‘ energiyalari**

Kompleks	4C=O va 3-OH, kj/mol	3'-OH va 4'-OH, kj/mol	3C=O va 5-OH, kj/mol
Kversetin-Co (II)	61,248	64,152	70,115


3-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan shuni qayd etish mumkinki, bog‘ energiyasi OH guruhning halqada joylashgan o‘rniga bog‘liq bo‘lib, mos holda 61,248, 64,152 va 70,115 kj/molni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“Ba’zi d-elementlar ionlarining kversetin va rutin bilan hosil qilgan kompleks birikmalari”** deb nomlangan IV bobida kodonopsis o‘simligi tarkibidagi flavonoidlarning yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida ajratish, kversetin va rutin bilan d-elementlar ionlari bilan kompleks birikmalarning sintezi, barqarorligi va tavsifini o‘rganishda bir qator tadqiqot usullardan foydalanib, olingan natijalar taqdim etilgan.

**Kodonopsis o‘simligi tarkibidagi flavonoidlarning yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi.** Flavonoidlar C<sub>6</sub>-C<sub>3</sub>-C<sub>6</sub> - qatoridagi polifenolli birikmalar bo‘lib, amalda barcha o‘simliklar organizmida sintezlanadi va ular o‘simliklar organizmida oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida faol qantashadi, o‘simliklarni ko‘payishida ishtirok etadi, hashorotlarni o‘simlilarga jalb etishda jozibodorlik rolini bajaradi. O‘simliklar tarkibida uchraydigan flavonoidlar C<sub>6</sub>-C<sub>3</sub>-C<sub>6</sub> - qatoridagi polifenolli birikmalarning katta guruhini tashkil etadi (5000 dan ortiq). Shuning uchun ham o‘simliklardan flavonoidlar manbai sifatida foydalanish

mumkin. Tarkibida flavonoidlar mavjud bo'lgan o'simliklardan biri kodonopsisdir (Codonopsis).

Kodonopsis tarkibidan flavonoidlarni ajratish uchun olingan 10,0 g namuna maydalanib, 40 % li etanol eritmasi bilan teskari sovutgichni qo'llab ( $t = 75^{\circ}\text{C}$ ), 30 minut davomida ekstraksiya qilindi. Olingan ekstraktlar sovutilgandan keyin filtrlandi va filtratlar o'simliklar tarkibidagi flavonoidlarni aniqlash uchun ishlatilgan. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida flavonoidlarni ajratish va aniqlash uchun C18 murojat faza bilan to'ldirilgan o'lchami 4,6 x 150 mm bo'lgan kalonka ishlatildi. Elyuent sifatida atsetonitril va ortofosfat kislotaning ( $\text{H}_3\text{PO}_4$ ) suvdagi 5 % li eritmasi ( $\text{pH}=3,5$ ) 25:75 (yoki 1:3) nisbatda ishlatildi. Elyuent sarfi - 0,8 ml/min. Spektrofotometrik detektor, 255 nm. Kolonkaga yuboriladigan namuna hajmi 5 mkl. Maqbul sharoitlarda olingan o'simlikdan tayyorlangan ekstraktning xromatogrammasi 3-rasmda keltirilgan.




**3-rasm. Kodonopsis o'simligi ekstraktning xromatogrammasi**

Miqdoriy analizni amalga oshirish uchun standart eritmalar konsentratsiyasining xromatografik chuqqi balandligiga (yuzasiga) bog'liqlik grafiklari kversetin va rutinlar uchun alohida tuzildi, hamda darajalash egri chizig'ining bog'liqlik darajasi korrelyasiya koeffitsentini hisoblash orqali baholandi. Namunadan aniqlangan rutin miqdori  $63,762 \pm 5,212$  mg/100 g, kversetin miqdori esa  $1,084 \pm 0,082$  mg/100 g ni tashkil etdi. Kversetin (99,8 %) va rutin (99,2 %) namuna tarkibidan xromatografik usulda ajratildi, tozalandi va keyingi tadqiqotlarda qo'llanildi.

**Kversetinning temir (II) ionlari bilan kompleks birikmasini sintezi va uning barqarorligini baholash.** Flavonoidlar polifunksional birikmalar sifatida ba'zi d-metallar bilan kompleks xosil qiladi. Shuning uchun ham flavonoidlarning ba'zi d-metallar ionlari bilan komplekslar olish dolzarb muammolardan biridir. Shu bilan bir qatorda komplekslar flavonoidlarning farmakologik va biologik xossalarini yaxshilaydi.

**Kompleks sintezi.** 25 ml metanolda eritilgan 0,120 g kversetin ( $\text{C}_{15}\text{H}_{10}\text{O}_7$ ) va 10 ml matanolda eritilgan 0,055 g  $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  eritmaları xona temperaturasida

aralastirildi. Aralashma 2 soat davomida 60°C da qaytar sovitgich bilan jihozlangan suv hammomida uzluksiz aralastirildi, keyin esa aralashma xona haroratida sovutiladi. Natijada quyidagi reaksiya boradi (4-rasm):



**4-rasm. Kversetinning Fe(II) ionlari bilan reaksiyasi tenglamasi**

Olingan qora jigarrang cho‘kma suv bilan uch marta, metanol bilan uch marta yuvilib, reaksiyaga kirmagan  $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  va kversetindan tozalandi hamda quritildi. Olingan kompleks birikma tadqiqotlar uchun ishlatildi.

Olingan kompleks birikma metanol-suv (hajmiy nisbati 1:1), etanol, DMSO (dimetilsulfoksid) tris-HCl-DMSO da eriydi, suv va uglerod tetraxloridda esa erimaydi.

Hosil bo‘lgan kompleks birikmaning IQ-spektrlarini olish uchun quruq holdagi namuna, UB- va ko‘rinish sohasi spektrlarini olish uchun esa uning metanol:suvning 1:1 nisbatdagi aralashmasidagi eritmasi ishlatildi.

Namunaning IQ-spektri sintez qilingan kompleksning tuzilishini aniqlash uchun ishlatildi (5-rasm). Kversetin va kompleks birikmaning xarakterli asosiy spektrlarining qiymatlari 4-jadvalda keltirilgan.


**4-jadval**

**Kversetinni  $\text{Fe}^{2+}$  ionlari bilan hosil qilgan kompleksning IQ-spektrlaridagi yutilish polosalari,  $\text{cm}^{-1}$**

	$\nu(\text{C}=\text{O})$	$\nu(\text{C}=\text{C})$	$\nu(\text{O}-\text{H})$	$\nu(\text{C}-\text{O}-\text{H})$	$\nu(\text{C}-\text{O}-\text{C})$	$\nu(\text{Fe}-\text{O})$
Kversetin	1664	1612	3402-3319	1319	1263	-
Kompleks	1641	1604	3205	1356	1269	627


Yuqoridagi 4-jadval va 5-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, erkin kversetinning  $\text{C}=\text{O}$  spektri  $1664 \text{ cm}^{-1}$  da paydo bo‘lgan, kompleksda esa bu spektr  $1641 \text{ cm}^{-1}$  ga siljigan. Bu siljish karbonil kislorodning metall ionlari bilan bog‘lanishini tasdiqlaydi.  $1612 \text{ cm}^{-1}$  va  $1263 \text{ cm}^{-1}$  dagi spektrlar  $\nu(\text{C}=\text{C})$  va  $\nu(\text{C}-\text{O}-\text{C})$  tebranishlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular metall kompleksida mos ravishda  $1604 \text{ cm}^{-1}$  va  $1269 \text{ cm}^{-1}$  ga o‘zgargan. Bu metallning koordinatsiyasi sodir bo‘lganligini isbotlaydi. Bundan tashqari,  $627 \text{ cm}^{-1}$  dagi Fe-O tebranish spektri metall

kompleksining paydo bo'lishini ko'rsatadi, erkin kversetinda esa bunday bog'lanish mavjud emas. Reagent sifatida olingan kversetin tarkibida suv molekulasining mavjudligi uchun kversetinda  $3402\text{-}3319\text{ cm}^{-1}$  va kompleksda  $3205\text{ cm}^{-1}$  (OH) chastotalari uchun keng diapazonli spetrlar hosil bo'lgan.



**5-rasm. Kversetin va uning Fe(II) bilan hosil qilgan kompleksining IQ-spetrlari**

Shu bilan bir qatorda sintez qilingan kompleks UB-spektroskopiyasi usulida ham o'rganildi. Kompleksning UB spektri namunaning metanol va suv (1:1) aralashmasidagi eritmasida olingan bo'lib, 6-rasmda keltirilgan.



**6-rasm. Kompleks (1) va toza kversetinning (2) yutilish spektrlari**

6-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, kversetinning UB sohasidagi yutilish spektrida ikkita asosiy yutilish maksimumi qayd etilgan. Ushbu spektrlar 372 nm (I guruh) (cinnamoyl tizimi) B halqaning assilyasiyasini va 256 nm (II diapazon) (benzol tizimi) A halqaning yutilishini xarakterlaydi. Kompleksning ultrabinafsha nurlari bilan yutilishidagi spektrlar batoxromik siljishlar natijasidir. Kompleksning metanol bilan suvning (1:1 nisbat) eritmasidagi spektrida 263 nm (IV diapazon) va 436 nm (III diapazon) ga to'g'ri keladi. Yangi maksimumlarning paydo bo'lishi kompleksda 7 nm va 64 nmli batoxromik siljishlar sodir bo'lanligini ko'rsatadi. Bu o'zgarishlarni 6-rasmda keltirilgan spektrlardan oson kuzatish mumkin. Ushbu siljishlar kversetin va temir o'rtasida kompleks

birikma hosil bo'lganini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, uni har ikkala diapazonning ham yutilishining batoxromik siljishi va 3-gidroksi guruhi protonining kislotali tabiati bilan izohlash mumkin, shuning uchun ham 3-OH guruhi hisobiga almashinish amalga oshadi, 4-keto guruhi hisobiga esa vodorod bog' hosil bo'ladi. Kompleks xosil bo'lish jarayonida 5-OH guruhining ishtirok etmaganligi undagi proton kislotaligining pastligi va sterik to'siqning paydo bo'lganligi bilan izohlanadi.

**Kversetinning Me(II) ioni bilan komplekslari barqarorligini baholash.** Eritmada kompleks hosil qiluvchi metall (M) va ligand (R) ta'sirida hosil bo'lgan kompleks birikmalarning tarkibi va barqarorligini o'rganish uchun odatda reaktivlarning boshlang'ich konsentratsiyasining turli nisbatlari bilan izomolyar eritmalar seriyalari tayyorlanadi, so'ngra bu eritmalar UV-spektrlari (optik zichliklari) ma'lum to'lqin uzunliklarda ( $\lambda$ ) o'lchanadi. Izomolyar qator usuli yordamida olingan natijalar asosida eritmada hosil bo'lgan kompleks birikmaning barqarorlik konstantasi ( $\beta$ ) hisoblanadi. Odatda, barqarorlik konstantalari bilan bir qatorda kompleks birikmaning molyar yutilish koeffitsienti ham aniqlanadi. U quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\varepsilon_{ij} = \sqrt{\frac{A_i \cdot (A_j)^2 - A_j \cdot (A_i)^2}{A_j \cdot C_{Mi} \cdot C_{Ri} - A_i \cdot C_{Mj} \cdot C_{Rj}}}$$

bunda  $\varepsilon_{ij}$  - kompleksning molyar yutilish koeffitsientini;  $C_{Mi}$ ,  $C_{Mj}$ ,  $C_{Ri}$ ,  $C_{Rj}$  mos ravishda i va j eritmalaridagi metall (M) ionlari va ligand (R) larning boshlang'ich konsentratsiyalari;  $A_i$  va  $A_j$  turli nm larda bir xil eritmalarining turli optik zichliklari.

Molyar yutilish koeffitsientining o'rtacha qiymatidan kelib chiqib, o'rganilayotgan kompleks birikmaning barqarorlik konstantasi ( $\beta'_K$ ) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\beta'_K = \frac{A/\varepsilon_K}{\left(C_R - \frac{A}{\varepsilon_K}\right) \cdot \left(C_M - \frac{A}{\varepsilon_K}\right)}$$

Kversetin ( $C_{15}H_{10}O_7$ ) va  $FeSO_4 \cdot 7H_2O$  larning boshlang'ich konsentratsiyasi 0,0001 mol/l ga teng bo'lgan eritmaları tayyorlandi va ulardan izomolyar seriyali eritmalar 5-jadvaldagi kabi nisbatlarda tayyorlandi.

## 5-jadval

### Izomolyar eritmalar seriyasi

No	$C_{Me}$ mol/l	$C_R$ mol/l
1	0,00010	0,00090
2	0,00020	0,00080
3	0,00030	0,00070
4	0,00040	0,00060
5	0,00050	0,00050
6	0,00060	0,00040
7	0,00070	0,00030
8	0,00080	0,00020
9	0,00090	0,00010

Tayyorlangan eritmalarning optik zichliklari qalinligi  $l = 1$  sm bo'lgan kvarts kyuvetada o'lchandi. Olingan natijalar 6-jadvalda keltirilgan. Xuddi shu kabi o'lchashlar turli muhitlarda, ya'ni pH ning 2,0, 4,0, 6,0, 7,0 va 9,0 bo'lgan qiymatlarida amalga oshirildi.

**6-jadval**

**pH=7,0 da izomolyar seriyalar bo'yicha o'lchangan optik zichliklar**

No	$C_M$ mol/l	$C_R$ mol/l	$C_M/C_R$	A 273 nm	A 402 nm
1	0,00010	0,00090	0,11	0,059	0,037
2	0,00020	0,00080	0,25	0,097	0,072
3	0,00030	0,00070	0,43	0,079	0,064
4	0,00040	0,00060	0,67	0,083	0,067
5	0,00050	0,00050	1,00	0,068	0,054
6	0,00060	0,00040	1,50	0,071	0,059
7	0,00070	0,00030	2,33	0,056	0,050
8	0,00080	0,00020	4,00	0,056	0,052
9	0,00090	0,00010	9,00	0,064	0,055

Tajriba natijalarida aniqlangan kversetin va runinnig Fe(II) va Co(II) ionlari bilan hosil qilgan komplekslari uchun turli muhitlardagi molyar yutilish koeffitsientlarining ( $\epsilon$ ) qiymatlari 7-jadvalda keltirilgan.

**7-jadval**

**Komplekslar uchun turli muhitdagi molyar yutilish koeffitsientlarining qiymatlari**

No	pH	273 nm	402 nm
Kversetinining Fe(II) li kompleksi			
1	2,0	$\epsilon = 6,95 \cdot 10^{-5}$	$\epsilon = 2,23 \cdot 10^{-5}$
2	4,0	$\epsilon = 2,39 \cdot 10^{-5}$	$\epsilon = 2,43 \cdot 10^{-5}$
3	6,0	$\epsilon = 7,33 \cdot 10^{-5}$	$\epsilon = 6,44 \cdot 10^{-5}$
4	7,0	$\epsilon = 1,32 \cdot 10^{-4}$	$\epsilon = 1,11 \cdot 10^{-4}$
5	9,0	$\epsilon = 1,30 \cdot 10^{-4}$	$\epsilon = 2,45 \cdot 10^{-4}$
Kversetinining Co(II) li kompleksi			
6	7,0	$\epsilon = 1,50 \cdot 10^{-3}$	$\epsilon = 9,00 \cdot 10^{-4}$
Rutinning Fe(II) li kompleksi			
7	7,0	$\epsilon = 1,51 \cdot 10^{-3}$	$\epsilon = 4,56 \cdot 10^{-4}$
Rutinning Co(II) li kompleksi			
8	7,0	$\epsilon = 1,82 \cdot 10^{-3}$	$\epsilon = 4,44 \cdot 10^{-4}$

7-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, molyar yutilish koeffitsientining qiymati eritma muhitga bog'liq holda o'zgargan va ular asosida

kompleks birikmaning barqarorlik konstantalari ( $\beta'_K$ ) hisoblangan. Olingan natijalar 8-jadvalda keltirilgan.

**8-jadval**

**Komplekslarning turli muhitlardagi  $\beta'_K$ -barqarorlik konstantalari**

No	pH	273 nm	402 nm
Kversetinining Fe(II) li kompleksi			
1	2,0	$\beta'_K = 2,10 \cdot 10^{-3}$	$\beta'_K = 2,08 \cdot 10^{-3}$
2	4,0	$\beta'_K = 3,14 \cdot 10^{-3}$	$\beta'_K = 2,61 \cdot 10^{-3}$
3	6,0	$\beta'_K = 2,24 \cdot 10^{-3}$	$\beta'_K = 2,27 \cdot 10^{-3}$
4	7,0	$\beta'_K = 1,94 \cdot 10^{-3}$	$\beta'_K = 2,04 \cdot 10^{-3}$
5	9,0	$\beta'_K = 2,07 \cdot 10^{-3}$	$\beta'_K = 2,77 \cdot 10^{-3}$
Kversetinining Co(II) li kompleksi			
6	7,0	$\beta'_K = 1,20 \cdot 10^{-3}$	$\beta'_K = 1,05 \cdot 10^{-3}$
Rutinning Fe(II) li kompleksi			
7	7,0	$\beta'_K = 1,22 \cdot 10^{-3}$	$\beta'_K = 1,10 \cdot 10^{-3}$
Rutinning Co(II) li kompleksi			
8	7,0	$\beta'_K = 1,40 \cdot 10^{-3}$	$\beta'_K = 1,05 \cdot 10^{-3}$


8-jadval ma'lumotlari asosida shuni qayd etish mumkinki, komplekslarning barqarorligiga eritma muhiti ta'sir ko'rsatdi, hamda hosil bo'lgan komplekslardagi bog'lar asosan kovalent va kovalentmas, ya'ni supramolekulyar sistemadir.

**Komplekslarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida tahlil qilish.** Kversetin va rutinning Fe<sup>2+</sup> va Co<sup>2+</sup> bilan hosil qilgan kompleks birikmalari, ya'ni reaksiya mahsulotlari YSSX usulida ham tahlil qilindi. Buning uchun quyidagicha maqbul sharoit tanlandi:

Tahlil vaqti, min	5
Temperatura	30 <sup>0</sup> C
Elyuent sarfi, ml/min	1 ml/min
$\lambda$ , nm	246 nm
Bufer	fosfatli bufer
pH	2,80
Elyuent	60% atsetonitril+40% fosfatli bufer
Turg'un faza	C18; 150mm x 4,6mm, 5 mkm

Kversetinni Co<sup>2+</sup> ionlari bilan reaksiyasi mahsulotlarining YUSSX da olingan xromatogrammasi 7-rasmda keltirilgan.


7-rasmdagi xromatogrammadan ko'rinib turibdiki, reaksiyon aralashmadagi toza holdagi kversetin va uning Co<sup>2+</sup> ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmasi cho'qqilar bergan. Ularning miqdori mutlaq darajalash usuli yordamida aniqlangan. Yuqorida qayd etilgan xromatografik sharoitlarda izomolyar seriya bo'yicha tayyorlangan aralashmalarning tarkibi YSSX usulida ham o'rganilgan va natijada komplekslarning hosil bo'lishi isbotlangan.




**7-rasm. Kversetin Co(II) kompleksining YSSU lida olingan xromatogrammasi**

Kversetinning  $\text{Fe}^{2+}$  va  $\text{Co}^{2+}$  ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining Skanirlovchi Elektron Mikroskopidagi tasvirlari olingan va ular 8-rasmda berilgan.

O'simlik hujayrasida sintezni o'tkazish uchun Semiz o't (*Portulaca oleracea*) tanlandi. Uning hujayrasi mikroreaktor vazifasini o'tadi. Bunda hujayra suyuqligi tarkibida flavonoidlar mavjudligi hisobga olinib,  $\text{Fe}^{2+}$  ionlari hujayra ichiga yetkazib berildi. Buning uchun  $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  ning 0,005 M li eritmasi tayyorlandi va u bilan semiz o't 1 oy davomida oziqlantirildi. Shundan keyin semiz o't yig'ib olindi, quritildi va kuydirish pechkachida 750-800°C da amalga oshirildi. Hosil bo'lgan kul namunasi difraktometrik tahlildan o'tkazildi. Olingan difraktogramma 9-rasmda keltirilgan.



**8-rasm. Kversetinni  $\text{Fe}(\text{II})$  li kompleksining Skanerlovchi elektron mikroskopda I-500, II-2000 marta kattalashtirilgan tasvirlari**



### 9-rasm. Kuydirilish mahsuloti difraktogrammasi

Tahlil natijalariga ko‘ra namunaning asosiy tarkibi  $\text{Fe}_{1,957}\text{O}_3$ , juda kam miqdorda  $\text{FeS}$  va  $\text{Fe}(\text{H}_2\text{PO}_4)_3$  dan iborat. Bu esa nano o‘lchamdagi temir va boshqa metallar oksidlarini sintezida o‘simlik hujayrasidan mikroreaktor sifatida foydalanish mumkin ekanligini isbotlaydi.

Shunday qilib, kversetin va rutinlarning ba‘zi d-elementlar ionlari bilan komplekslari sintez qilindi, ularning xossalari kvant-kimyoviy usullarda o‘rganildi, hosil bo‘lgan kompleks birikmalarning barqarorliklari baholandi va ularning o‘simlik hujayrasida hosil bo‘lishi tadqiq etildi.

Ba‘zi d-elementlar ionlari bilan flavonoidlardan supramolekulyar sistemalar olish va ularning tadqiqi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

### XULOSALAR

1. 6-31G\* ba‘zis to‘plamini qo‘llab, kversetin va rutinning  $\text{Fe}^{+2}$  va  $\text{Co}^{+2}$  ionlari bilan komplekslari Ab into usulida o‘rganildi hamda kversetin-Fe(II) kompleks tarkibidagi  $4\text{C}=\text{O}$  hamda 3-OH bo‘yicha hosil bo‘lgan vodorod bog‘ning energiyasi 28,912 kJ/mol, 3'-OH va 4'-OH o‘rtasidagi bog‘ uchun esa 76,361 kJ/mol ekanligi aniqlandi.

2.  $\text{Fe}^{+2}$  va  $\text{Co}^{+2}$  ionlarining kversetin hamda rutin bilan hosil qilgan birikmalarining tuzilishi UB-, IQ-spektroskopiya usullarida o‘rnatildi hamda yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida tasdiqlandi.

3. Kversetin va rutinning  $\text{Fe}^{+2}$  va  $\text{Co}^{+2}$  ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining barqarorligi turli muhitlarda baholandi hamda beqarorlik konstantalari qiymatlarining pH ga bog‘liqligi isbotlandi.

4. Ba'zi d-elementlar ionlarining flavanoidlar bilan hosil qilgan birikmlarining termik parchalanish mahsulotlari ularning oksidlariga mos kelishi aniqlandi ( $\text{Fe} \rightarrow \text{Fe}_{1,957}\text{O}_3$ ).

5. Kversetinning  $\text{Fe}^{+2}$  va  $\text{Co}^{+2}$  ionlari bilan kompleks birikmalarini sintez qilish metodikasi "Samarkand England Eco-Medical" korxonasida amaliyotga joriy etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.К.02.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ Ш. РАШИДОВА**  

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**ИСМАТОВ ДАВЛАТ МУХИДДИН УГЛИ**

**СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИИ СУПРАМОЛЕКУЛЯРНЫХ СИСТЕМ  
ИОНОВ НЕКОТОРЫХ d-ЭЛЕМЕНТОВ С ФЛАВОНОИДАМИ**

**02.00.04 – Физическая химия**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Самарканд – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/K559.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.


Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета по адресу [www.samdu.uz](http://www.samdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

Научный руководитель:	Мухамадиев Нурали Курбоналиевич доктор химических наук, профессор
Консультант:	Суяриён Курбон Джура кандидат химических наук, доцент
Официальные оппоненты:	Эшмаматова Нодира Бахрамовна доктор химических наук, доцент Мурадова Дилафруз Кадировна PhD, доцент
Ведущая организация:	Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится «6» март 2024 года в 13<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.K.02.05 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. по адресу: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15, Института Биохимии, Химический корпус, 220 кабинет. Тел.: (99866)239-11-40; Факс: (99866) 239-11-40. E-mail: [devonxona@samdu.uz](mailto:devonxona@samdu.uz)).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрировано за № 11. Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар дом 15, ИРЦ. (Фундаментальная библиотека СамГУ) Тел.: (99866)239-11-51. E-mail: [devonxona@samdu.uz](mailto:devonxona@samdu.uz)

Автореферат диссертации разослан «21» февраль 2024 года.  
(реестр протокола рассылки № 4 от «21» февраль 2024 г)



**А.М.Насимов**

Председатель научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
д.х.н., профессор

**Ж.Р.Узюков**

Ученый секретарь научного  
совета по присуждению учёных  
степеней, PhD

**О.Н. Рузимурадов**

Председатель научного семинара  
при Научном совете по  
присуждению учёных степеней,  
д.х.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире с каждым годом успешно расширяются исследования по получению и изучению свойств супрамолекулярных комплексов на основе переходных металлов и органических лигандов. Многие комплексы металлов с органическими лигандами являются эффективными катализаторами различных реакций, средствами адресной доставки лекарств в медицине, уникальными магнитными, оптическими, полупроводниковыми и нано материалами. Поэтому важно создавать новые методы синтеза металлокомплексов с органическими лигандами, изучать их свойства и расширять область их применения. Кроме того, значительные результаты достигнуты в производстве оптических и диэлектрических органо-неорганических гибридных комплексов, нанопористых материалов с высокой адсорбционной способностью, селективных катализаторов фотокаталитических реакций, люминесцентных, сегнетоэлектрических и ферромагнитных материалов.

В мире проведено множество научных исследований по синтезу и изучению свойств комплексов металлов с органическими лигандами. В связи с этим, разработаны методы синтеза металлов с органическими лигандами и оптимизированы их условия. Кроме того, полученные комплексные соединения используются при создании высокоселективных катализаторов, производстве альтернативной энергетики, создании термозащитных покрытий, адресной доставке лекарств, получении наноматериалов, обладающих уникальными магнитными, оптическими и полупроводниковыми свойствами, выделении важных генов в генной инженерии и др. Важные результаты были получены относительно его использования при иммобилизации вирусов.

В нашей стране проводились научные исследования по синтезу комплексов на основе переходных металлов и органических лигандов и их практическое применение, получены важные результаты по строению и свойствам. В стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан «производство готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местного сырья, освоения принципиально новых видов продукции и технологий и на этой основе повышения конкурентоспособности» национальных товаров на внутреннем и внешнем рынках определены важные задачи по «применению». В связи с этим получение супрамолекулярных систем с использованием флавоноидов в качестве органических лигандов с ионами некоторых d-элементов и изучение их физико-химических свойств поможет открыть возможность использования комплексов для различных целей.

Указ Президента Республики Узбекистан №ПФ-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития

